

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ro'ziyeva Gulnora Xakimjonovna

Baliqchi tumanidagi

29-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada texnologiya darslari haqida umumiyl tushunchalar haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, texnologiya darslarini hayotimiz tutgan o'rni va texnologiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Kalitso'zlar: texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya,dizayn

"Texnologiya" darsligi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo'l mang, "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi.

"Texnologiya" darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz.

Bu maqolada o'quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo'ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o'tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umummehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarning rivojlanib borayotganligi bu ko'nikmalarining zaruratini yanada oshirmoqda. Ijodkorlik – bu yangi g'oyaga asoslangan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo'lib bormoqda. Sizni o'rab turgan barcha buyumlar, jihoz va uskunalar ijodkor insonlartomonidan yaratilgan texnik vosita va texnologiyalarning mahsuli hisoblanadi. Ular mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrli boshqa ne'matlar yaratilgan. Siz ham kelajakda voyaga yetib, tanlagan kasbingizni mukammal



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

egallab, bu taraqqiyotga o‘z hissangizni qo‘sasiz deb umid qilamiz. Bu vazifalarni uddalashingizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Asosiy qism: Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo‘llashning asosiy bo‘limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlari berilgan. Siz ulardan birini to‘liq o‘rganasiz. Shuni e’tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar ham o‘rganadilar. Siz mashg‘ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko‘plab sohalarga oid kasbhunar turlari bilan tanishasiz. Kelajak hayotingizda shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, o‘z sohasining mohir ustasi bo‘lib yetishasiz. Bu bilan siz jamiyatimiz ravnaqi uchun o‘z hissangizni qo‘sasiz.

Ta’lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogic texnologiya, texnologik yondoshuv, ta’limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so‘z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta’riflar beriladi. Menimcha, avvalo «texnologiya» so‘zining ma’nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so‘zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zida uni «texno» - hunar yoki san’at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san’ati haqidagi fan sifatida e’tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo‘lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta’limi» o’quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta’lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblayman.

Bundan tashqari, o‘quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro‘zg‘orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallah hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat

operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini

amaliyotda qo‘llay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda

mahsulot sifatini tahlil qila olish;

buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda “*Texnologiya va dizayn*”, “*Servis xizmati*” yo‘nalishlarida o‘qitiladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. 0 ‘quv q o ‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. “*Texnologiya*” 2-sinf darsligi. T . ; “*Sharq*” . 2018-yil10
4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mchnat ta’limi 3-sinf darsligi.T . : “*Sharq*” . 2016-yil



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

References

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o‘qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. 0 ‘quv q o ‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqiova A.K. “Texnologiya” 2-sinf darsligi. T . ; “Sharq” . 2018-yil10
4. Sanaqilov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta’imi 3-sinf darsligi.T . : “Sharq” . 2016-yil.